

JAMOAVIY SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Usmanov Yorqinbek To'liqinali o'g'li

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-kurs talabasi

yorqinbekusmonov48@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21902412>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlarda jamoaviy sport turlarini tashkil etish va takomillashtirishdagi muhim masalalarni tahlil qilinadi. Natijada olingan xulosalarni umumlashtirib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sport menejmenti, individual sport, taktik tayyorgarlik, ommaviylashuv, jamoaviy sport turlari, professional yondashuvlar, skauting, hamkorlik ko'nikmasi.

Abstract: This article analyzes key issues regarding the organization and improvement of team sports within the context of research on modern sports theory and practice. Conclusions drawn from the study are summarized, and proposals and recommendations are offered.

Keywords: sports management, individual sports, tactical preparation, popularization, team sports, professional approaches, scouting, collaboration skills.

Аннотация: В статье анализируются ключевые вопросы организации и совершенствования командных видов спорта в контексте исследований современной теории и практики спорта. Обобщены выводы, сделанные по результатам исследования, а также представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: спортивный менеджмент, индивидуальные виды спорта, тактическая подготовка, популяризация, командные виды спорта, профессиональные подходы, скаутинг, навыки взаимодействия.

Yaqin yillarda mahalliy va xalqaro sport bellashuvlarida O'zbekiston tobora ijobiy natijalar ko'rsatib, sport sohasidagi rivojlanishlar yaqqol sezilmoqda. F.Toshpo'latov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport ham tamomila yangicha maqom yo'nalishida shakllanib, yuksak cho'qqi sari qanot yozmoqda [1]". Yurtimizda ushbu natijalarning xarakterli xusuiyati mavjud. Sport olamida O'zbekiston odatda individual salohiyati bilan dunyoga tanilgan (bokschi, shaxmatchi, kurashchi,) sportchilar bilan nom qozongan bo'lsa, jamoaviy sport turlarida (futbol, futzal) ham tobora mavqeyini mustahkamlamoqda.

Jamoaviy sport ommaviylashgan, ulkan miqyosdagi muhlislar bazasiga ega bo'lgani uchun ham sport menjmentida va marketingida eng talabgir sport turlaridan hisoblanadi. Demak, yurtimizda jamoaviy sportga yoshlarni jalb etish va unga oid hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim. Garchi futbol, voleybol kabi jamoaviy musobaqalar ko'pchilikni qamrab olsa ham, professional darajada vaziyatni yaxshilash uchun tizimli muammolar o'rganilishi talab etiladi.

Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlikda tashkil etadigan sport musobaqalari, ligalari aksariyat hollarda mavjud bo'lganda ham ularni professional darajada boshqarish amalga oshmasligi mumkin. Bunday hollarda rivojlanish kuzatilmaydi. Menejment tizimini zamonaviylashtirish orqali yoshlar uchun qulay muhit yaratish bunda ligalarda ishtirok etadigan salohiyatli yoshlarni skauting orqali ajratishga undaydi. Tadqiqotchi A.Simvanzaning tahlillari buni asoslab, skauting darajasida saralay olmaydigan tahlillarni tanqid qiladi. [2] Bunga erishish uchun yosh iqtidorlarning natijalari, o'yinlarining statistik tahlilini yuritib boruvchi elektron tizimni yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Bu havaskor sportchilarda intiluvchanlikni oshirib, sog'lom raqobat muhitini amalga oshirishga yordam beradi va jiddiy munosabat bilan sport tadbirlariga tayyorlanish mas'uliyatini oshiradi.



Faqatgina kuchli saralab olish bilangina ham ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Jamoada bir-biri bilan qanday hamkorlik muxiti shakllanishi va birdamlik asosida taktik tayyorgarlik ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Ayni ko'nikmalar qatoriga liderlik qilish va jamoada subordinatsiya saqlash bilan barchaning jamoaviy sport orqali muhim shaxsiy sifatlarini rivojlantirish talab etiladi. Jamoaviy sport faqat tanlangan yoki ayrim sportchilar bilan cheklanishi real vaziyatlarda juda kutilmagan oqibatlarga olib keladi. O'yin davomida sardorga bo'ysunish, umumiy maqsad yo'lida shaxsiy manfaatlardan voz kechish ko'nikmasi kabi jihatlar birlamchi qobiliyatlar sifatida ta'minlanishi natijadorlikni oshiradi. Mag'lubiyatga uchrayotgan paytda tushkunlikka tushmaslik, jamoa bo'lib qiyinchilikdan chiqib ketish strategiyalarini o'rganishlarida jamoaga nazariy va praktik jihatdan kuchli iqtidorga ega murabbiy talab etiladi.

Bir qator futbol sporti tadqiqotchilarining tadqiqot obyekti sifatida Ispaniya terma jamoasini o'rganib, 2023-yilda muhim prognozlarni ilggari surgan edilar [3]. Ispaniyaga xos birdamlikda o'yin ko'rsatish ularning taktik ustunligi bildirilgan ayni tadqiqot rael hayotda ham o'z aksini topdi. JCH-2026 tadbirida Ispaniya terma jamoasining taktik birdamligi misolida bunga sport ixlosmandlari guvoh bo'lishdi. Uzoq muddatli mag'lubiyatsiz seriya bilan bunday muvaffaqiyatga erishishida ispaniyalik futbolchilarning jamoaviy o'yin strategiyalarini yuksak darajada o'zlashtirgani asosiy sabablardan bo'ldi.

Sport marketingi imkoniyatlaridan foydalanish O'zbekistonda aksariyat holatlarda professional faoliyatdagi qatnashchilar uchungina xos bo'lib qolmoqda. Binobarin, havaskor va maktab, mahalliy darajadagi jamoalarga ham bunday imkoniyatlar berilishi mumkin. Yurtboshimiz SH. Mirziyoyev bunga munosabat bildirib "jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish va sport tashkilotlari, obyektlari va inshootlarining ommaviy sport, bolalar sporti va professional sport yo'nalishlari bo'yicha moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan maksimal darajada va samarali foydalanilishini ta'minlash, sport asbob-uskunalari

hamda inventarlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilishini tashkil etish va kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashish" kabi tashabbuslarni ilgari surgan edilar [4].

Maktab yoki tuman jamoalari uchun o'ziga xos logotiplar, formalar yaratish, ularning o'yinlarini ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, TikTok) qiziqarli formatda yoritish ham sodda tarzda ana shunday sport marketingini jonlantiradi. Qolaversa, milliy terma jamoamiz yetakchilari va taniqli sportchilarni yoshlar ligalarining elchilari (ambassador) sifatida jalb etish ham jamoaviy sport miqyosini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Agarda soliq imtiyozlari va brend targ'iboti orqali mahalliy tadbirkorlar ham bunga jalb etilishining uddasidan chiqilsa, pirovardida bu ijobiy natija beradi. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarziga moslashish avj oladi.

Umuman olganda individual sportdan jamoaviy sport rivojlanishi asosiy omillari quyidagilar bilan bog'liq va ularga e'tibor berish talab etiladi:

- havaskor jamoalar bilan yulduzli tarkib jamoalarining integratsiyasi orqali mahorat maktabi imkoniyatlarini oshirish;
- "besh tashabbus olimpiadasi" kabi loyihalarni yanada kengaytirib, har bir mahallada yoshlarning jamoaviy o'yinlar bilan bandligini ta'minlash;
- turli ijtimoiy qatlamdagi yoshlarning bir jamoada o'ynashi orqali ularda ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish;
- skauting tizimi uchun aniq tahlil imkoniyati beradigan zamonaviy virtual platforma ishlab chiqish;
- maktablar, litseylar va oliygohlar o'rtasida muntazam o'tkaziladigan tizimli ligalarni (masalan, futbol, basketbol, voleybol bo'yicha) yo'lga qo'yish va ularni professional darajada boshqarish;
- jamoaviy ko'nikmalarga asta-sekinlik bilan tayyorlanib borish va subordinatsiya va aqlli muvozanatga erishish.

Shu tarzda jamoa sport turlarida jamoa a'zolarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari sportchilarning maqsadlariga erishishi uchun juda muhim [5]. Millionlar

o'yini xisoblanuvchi basketbol, futbol, voleybol kabi sport turlari bugungi kunda eng kuchli motivatsiyaga ega bo'lgan ko'pchilik insonlarning tanlovidir. Ularni tashkillashtirish oson va inson oson moslasha oladigan sport turlaridir. Yurtimizda bunga yetarlicha imkoniyatlar mavjud va natijadorlik faqat ana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalan olishga bog'liq.

Xulosa

Individual sportdan farq qilgan holda guruh asosida tashkil etiladigan musobaqalar jamoaviy intizom va ruxiy motivatsiyaga, maxsus ko'nikmalarga tayanadi. Ilg'or sport tadqiqotlarida bunday ko'nikmalar bilan bir qatorda gurux a'zolarining salohiyatini yuzaga chiqaruvchi samarali skauting tizmi va sport marketingini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tashpulatov F.A. Jismoniy tarbiya va sport [Matn]: o'quv qo'llanma / F.A. Tashpulatov. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – B. 3.
2. Simwanza A. Sports activities toward sports talent development: Do the perceptions of school administrators, teachers and students matter? // Social Sciences & Humanities Open. – 2026. – Vol. 13. – Art. 102383. – P. 2.
3. González-Rodenas J., Moreno-Pérez V., López-Del Campo R., Resta R., Del Coso J. Evolution of Tactics in Professional Soccer: An Analysis of Team Formations from 2012 to 2021 in the Spanish LaLiga // Journal of Human Kinetics. – 2023. – Vol. 88. – P. 209.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B. 209.
5. Bouthier, Daniel; Godbout, Paul; Grehaigne, Jean-Francis (1997). "Jamo'a sport turlarida natijalarni baholash". Jismoniy tarbiya o'qitish jurnali . 16 (4): 500–516 . doi : 10.1123/jtpe.16.4.500 .